

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 5/6 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Умарханова Дилдора Шарипхановна</i> ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ	9-14
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR.....	15-26
<i>Собирова Нозимахон</i> СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ	27-36
<i>Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли</i> ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ	37-45
<i>Турсунов Ойбек</i> ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА	46-53
<i>Ismoilova Aziza Alisher qizi</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI	54-60
<i>Safarova Shaxlo Pulatovna</i> YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI	61-67
<i>Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi</i> CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES	68-71
<i>Valijonov Daler Dilshodovich</i> PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF EU MEMBERS	72-76
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI	77-92
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI	93-103
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ...	104-109
<i>Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи</i> СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ	110-118
<i>Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА	

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	119-129
---	---------

Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li

RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH	130-136
---	---------

Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich

XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
--	---------

Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi

ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO	142-147
---	---------

Raimov Elbek Bahodirovich

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
---	---------

Alieva Kamola Ravshanovna

OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN	153-161
--	---------

Juraeva Asal

MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	162-166
---	---------

Rakhmonov Otabek

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES	167-171
--	---------

Айбек Якубов

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ	172-178
--	---------

Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li

MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi	179-184
---	---------

07.00.00 – TARIX FANLARI

Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
--	---------

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI	193-199
---	---------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Imamov Javokhir

LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN	200-203
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI	204-209
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Bawetdinov Mukhammeddin

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI 210-215

Соҳибова Зарнигор

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) 216-219

Jonridova Sanobar Sherali qizi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI 220-224

Sharipova Mokhidil

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Abdurasul Abdurahimovich

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH 232-237

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY
QARASHLARI 238-245

Qalandarova Maxliyo

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH 246-251

Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

Ibragimova Venera Azadovna

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA
IFODALANISHI 265-269

Received: 10 August 2024
Accepted: 15 August 2024
Published: 25 August 2024

Article / Original Paper

CONCEPT OF URBANIZATION, TYPES AND ITS ANALYSIS

Bakhtiyarov Sirojbek Ilkhombek ugli

Independent researcher, Urgench State University

Abstract. The article discusses the essence of the concept of urbanization, its importance as a process, positive and negative aspects. Opinions about the role of the urbanization process in people's lives are presented.

Key words: urbanization, suburbanization, industrial urbanization, megacities, developed urbanization, rural urbanization, ecological urbanization.

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada urbanizatsiya tushunchasining mazmun mohiyati, uning ijtimoiy jarayon sifatidagi ahamiyati, ijobiy va salbiy tomonlari haqida so'z yuritiladi. Urbanizatsiya jarayonining insonlar hayotida o'rni haqida mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, suburbanizatsiya, sanoat urbanizatsiyasi, megapolislar, rivojlangan urbanizatsiya, qishloq urbanizatsiyasi, ekologik urbanizatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N23>

Kirish. Urbanizatsiya jamiyatda sodir bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir. U ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ma'lum bir hudud bilan bog'liq bo'lgan shahar, uning turmush tarzi va madaniyati rolining o'sishini ko'rsatadi. XX asrda mazkur jarayon jadallashib, jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb eta boshlagan. XXI asrga kelib mazkur jarayon avval mavjud bo'lmagan muammolarni keltririb chiqardi. Ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan bunday muammolar urbanizatsiya jarayonining kengayishiga va chuqurlashishiga olib keldi. Natijada bu jarayon fanlararo yondashuv asosida o'rganishni talab etmoqda. Shu jihatdan urbanizatsiya jarayonini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metododologiya. Urbanizatsiya tushunchasi lotincha "urbanus" so'zidan olingan bo'lib, "shaharga mansub" degan ma'noni beradi [7]. Bunda jamiyat hayotida shaharlarning ahamiyati ortib boradi, aholining ijtimoiy tarkibi, demografik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Qishloq aholisining shaharlarga ko'plab ko'chib kelishi natijasida ularning turmush tarzi va shahar madaniyatida o'zgarishlar kuzatiladi.

Urbanizatsiya tushunchasi XX asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan. Bu tushuncha fanga Luis Virt (1897-1952) tomonidan kiritilgan [1]. Dastlabki bosqichda ilm-fanning qadimgi

davr namoyondalari, o'rta asrlar, ma'rifat davri mutafakkirlarining ishlari paydo bo'lgan, ularda shaharlarga ijtimoiy voqe'lik sifatida qaralgan, shu nuqtai nazardan muhim xulosalar qilingan. Urbanizatsiya jarayonini o'rganish tarix, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, geografiya mutaxassisliklar bo'yicha dissertatsiya ishlari doirasida ham olib borilmoqda.

Urbanizatsiya atamasi mohiyatini so'zning ma'nosidan keltirib chiqarish, fanlararo – geografik, iqtisodiy va boshqa fanlar majmuasi sifatida, demogeografik–makonda ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishning yangi shaklini yuzaga kelishi, sotsiologik–ijtimoiy tashkilotning alohida turini shakllanish jarayoni sifatida tushunish mumkin [2]

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, urbanizatsiya tushunchasining tarixiy nuqtayi nazardan turlari va uning tahlili bayon qilingan.

Muhokama va natijalar. Urbanizatsiya – tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir [3]. Urbanizatsiya tabiiy jarayon bo'lib, u insoniyat taraqqiyotining mahsulidir. Bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Bu qadimgi davr uchun ham hozirgi davr uchun bir xildir. Urbanizatsiya jarayonining ijobiy tomonlari insonlarning bir joyga to'planib, turli darajadagi xizmat turlaridan foydalana olishlaridir. Bu ularga ijtimoiy turmush hayotida bir qator qulayliklar tug'diradi. Jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim olish, ish joyining yetarliligi, martabada o'sish imkoniyatining kengligi, savdo-sotiq sharoitlarining yetarliligi, infrastruktura, madaniy hordiq chiqarish, turli tadbirlarni o'tkazish va boshqalar. Bu esa, hududga iqtisodiy rivojlanishiga imkon yaratib beradi.


Urbanizatsiyaning salbiy tomonlarni asosan insonlarning bir hududga ko'plab to'planishi oqibatida ekologik muammolarning vujudga kelishi va inson salomatligi bilan bog'liq masalalarning kelib chiqishidir. Ekologik muammolardan havoning ifloslanishi, suvning yetishmovchiligi va suvga turli axlatlarning yoki boshqa narsalarning tashlanishi oqibatida ifloslanishidir. Shaharda ko'plab uylarning qurilishi natijasida yer yetishmovchiligi kelib chiqadi, bunda bir tomondan yashil maydonlarning kamayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan turli qurilishlar ekosistemaning buzilishiga olib keladi [6].

Shaharlarda aholining ko'payishi jinoyatchilikning ko'payishiga olib keladi. Shu bilan birga ijtimoiy muammolar ko'payadi, jamiyatda yakdillik bo'lmaydi, turli qarash va g'oyalarga ega bo'lgan aholi o'rtasida birikish bo'lmaydi. Turli xil muammolarning ko'pligi, shahar hayotidagi taranglik aholi o'rtasida psixologik muammolarni va stress holatining o'sishiga olib keladi. Bunda uy-joylarning yetishmovchiligi, suv bilan ta'minlashdagi muammolar, infratuzilma bilan bog'liq muammolar ham ko'payib boradi.

Urbanizatsiyaning jamiyatga ta'siri	
Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
Aholining bir joyda to'planishi	Aholining turli qarash va g'oyalarga ega bo'lganligi sababli yakdillikning bo'lmasligi
Maishiy xizmat turlaridan foydalanishdagi qulayliklar	Infrastruktura bilan bog'liq muammolar, maishiy chiqindilarning ko'payishi
Sog'likni saqlash tizimining takomillashganligi	Aholida o'rtasida psixologik muammolar va stressning bo'lishi

Ish o'rinlarning mavjudligi	Aholining ko'p ko'chib kelishi oqibatida ishsizlar sonining ortishi
Ta'lim olishdagi imkoniyatlar	Havoning ifloslanishi
Martabada o'sish imkoniyatining kengligi	Suvning taqchilligi va ifloslanish darajasi yuqoriligi
Savdo uchun sharoitlarining yetarliligi	Yer yetishmovchiligi, qurilishlarning ko'payishi
Infrastrukturaning takomillashuvi	Yashil maydonlarning kamayib ketishi
Madaniy hordiq chiqarish uchun sharoitlarning mavjudligi	Uy-joy yetishmovchiligi
Turli tadbirlarni o'tkazishning qulayligi	Ijtimoiy muammolarning ko'payishi

Urbanizatsion jarayon natijasida qishloqlardan ko'plab aholining ko'chib kelishi natijasida shaharlar o'sadi, aholi soni ortadi, shahar infratuzilmasi rivojlanadi va jamiyatda o'zgarishlar sodir bo'ladi.



Urbanizatsiyaning turli shakllari mavjud bo'lib, ular turli xil xususiyatlarga ega bo'ladilar. Urbanizatsiyaning dastlabki shakllari ijtimoiy-madaniy urbanizatsiya va

suburbanizatsiya hisoblanib, bugungi kunda ham mavjud. Sanoat urbanizatsiyasi sanoat inqilobidan keyin paydo bo'ldi va taraqqiy etib bormoqda. Urbanizatsion jarayonning jadallashuvi jamiyatning murakkablashuviga olib kelmoqda. Bugungi kunda urbanizatsion jarayonlarning turli shakllari vujudga kelgan va jadallik bilan rivojlanmoqda. Bu aholining ijtimoiy turmush tarziga, mintaqalarning iqtisodiyoti, ijtimoiy munosabatlari va atrof-muhitga kuchli ta'sir qilmoqda.

Ijtimoiy-madaniy urbanizatsiya urbanizatsiyaning dastlabki shakllaridan biri bo'lib, bunda shahar hayotida ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholining qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tishi, ularning shahar hayotiga moslashuvi jarayoni sodir bo'ladi, u shahar aholisining turmush tarziga ham ma'lum ma'noda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shaharlar madaniy va ijtimoiy faollik markazlariga aylanadi. Bu urbanizatsiyaning shaharlarda yashovchi odamlarning madaniyati va ijtimoiy munosabatlariga ta'sirini ko'rsatadi. Urbanizatsiya odatda madaniy xilma-xillikka, turli ijtimoiy guruhlariga mansub kishilar o'rtasida fikr va tajriba almashishga, o'ziga xos madaniy o'ziga xosliklarning shakllanishiga olib keladi.

Suburbanizatsiya jarayonida shahar arofidagi hududlar qo'shilib shahar hududi kengaytiriladi. Bunda shahar aholisi shu hududlarda o'zining turar joylarini qurishadi, natijada shahar aglomeratsiyalari shakllanadi. Bugungi davrda shaharlarni kengaytirishning eng samarali usuli sifatida shahar aglomeratsiyasini shakllantirish e'tirof etilmoqda [4]. Suburbanizatsiyada shahar aholisi uchun aglomeratsiyada qulay imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. Birinchidan uy-joy uchun keng hudud, toza havo, yashil maydon, ikkinchidan shaharda yaratilgan infrastruktura ham bu hududga olib kelinadi, uchinchidan bugungi kunda avtomobillar uchun tirbandliklarning kamligi va tekis, ravon yo'llar shahar aholisining bu hududlarga ko'chib o'tishini rag'batlantiradi.

Suburbanizatsiya jarayonlari, ya'ni shahar hududlarini kengaytirish ishlari qadimgi davrga ham xos. Arxeologik tadqiqot ishlari va yozma manbalarning tahlillari natijasida bunday hodisalar asoslangan.

Urbanizatsiya jarayonlarining tarixiy shakllariga sanoat urbanizatsiyasini ham kiritish mumkin. Urbanizatsiyaning bu turi XVIII asrning oxirlarida Buyuk Britaniyada yuz bergan sanoat inqilobidan keyin shakllana boshlagan. Sanoatning jadal rivojlanishi, zavod va fabrikalarning paydo bo'lishi shaharlarning o'sishiga, aholining qishloqlardan shaharlarga ommaviy ko'chishiga va yangi ishchi mutaxassisliklarning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Sanoat urbanizatsiyasi shaharlar ishlab chiqarish markazlariga aylanishi natijasida sanoatlashtirish va sanoatning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Aholi shaharlarga yangi korxonalarda ishlash uchun qishloqlardan ko'chib kelishadi. Sanoat urbanizatsiyasida shaharlar sanoatning yirik markazlariga aylanadi. Aholi ish, yaxshi imkoniyatlar izlab qishloqlardan shaharlarga ko'chib kelishadi. Bu jarayonda sanoat korxonalari, infratuzilma va turar-joy majmualari qurilishi bir vaqtda olib boriladi. Shahar tez o'sadi va tashqi ko'rinishida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholining turmush tarzi yaxshilanib boradi.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning birinchi yarmida texnika va texnologiya taraqqiyoti jamiyatda tub o'zgarishlarga olib keldi. Bu urbanizatsiyaning yangi turlarini vujudga keltirdi. Jahon miqyosida rivojlangan mamlakatlar shaharlarida infrastruktura yanada takomillashtirildi, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarda aholi uchun keng va qulay imkoniyatlar yaratildi. Bunday ijtimoiy hayotdagi o'zgarish tadqiqotchilar tomonidan

“rivojlangan urbanizatsiya” deb alohida tur sifatida ko'rsatildi. Keyingi davrlarda qishloqlarga ham e'tibor kuchayib, qishloqlar shaharlarga aylantirilmoqda. Bu fanga **“qishloq urbanizatsiyasi”** bo'lib kirgan. Qishloqlarning shaharlarga aylanganligi va shahar infratuzilmasi shakllantrilganligini O'zbekiston misolida ham ko'plab keltirish mumkin.

Keyingi davrlarda **“megapolis”**lar keng rivoj topmoqda. Ular 10 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladigan yirik shaharlar bo'lib, unda urbanizatsiyaning o'ziga xos turi shakllangan, ularda alohida ijtimoiy muammo va qiyinchiliklar mavjud bo'ladi.

“Ekologik urbanizatsiya” shaharlar taraqqiy etgandan keyin vujudga kelgan. U shahar ijtimoiy hayotining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun, shaharda yashil zonalarini ko'paytirishga qaratilgan strategiya. Bu g'oya asosan texnikaning rivojlanishi natijasida XX asrning oxirlaridan paydo bo'lgan. Bunga yashil texnologiyalardan foydalanish, yashil maydonlarni ko'paytirish, chiqindilarni boshqarishning zamonaviy tizimlari, barqaror va energiya tejamkor binolarni yaratish, quyosh panellari va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, ob-havoning ifloslanish darajasini kamaytirish, yo'l transportlarini takomillashtirish, ko'cha bog'larini tashkil etish, velosiped yo'llarini yaxshilash va kengaytirish, havoga zararli moddalarning chiqishini kamaytirish va h.k. Bu shaharda uglerod chiqindilarini kamaytirish, havo sifatini yaxshilash va aholi uchun qulayroq muhit yaratish imkonini beradi. Ekologik urbanizatsiya shaharlar aholisi uchun sog'lom va iqlim o'zgarishiga chidamli bo'lishiga yordam beradi [4]. Tadqiqotchilar ekologik urbanizatsiya yuqori darajada rivojlangan shaharlarga Kopengagen va Daniyani kiritishadi.

Shahar infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish jarayoni **“texnik urbanizatsiya”** hisoblanadi. Bunda shaharda fuqarolar uchun qulaylik va yaxshi hayotni ta'minlash uchun yo'llar, binolar, kommunikatsiyalar, energetika va boshqa texnik obyektlar quriladi. Infratuzilma, xizmatlar va barqarorlikni yaxshilash uchun turli zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi, shaharlar aholisi va mehmonlari uchun hayot sifatini yaxshilash uchun turli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari birlashtiriladi. Shahar transport tizimini takomillashtiriladi. Shaharda aholiga xizmatlarini boshqarish uchun raqamli platformalar joriy etiladi. Bugungi kunda bu texnik urbanizatsiyaga **“aqlli shahar”**larni bunyod etish g'oyasi ilgari surilmoqda. **“Aqlli shahar”**larda aqlli transport tizimlari, energiya tejovchi binolar, raqamli boshqaruv va ilg'or chiqindilarni boshqarish kabi amaliyotlar joriy etiladi. Texnik urbanizatsiyalashgan shaharlarga misol tariqasida Singapur, Barselona, Dubay shaharlarini kiritish mumkin, ularda muammolarini hal qilish va shaharlarning yashash sharoitlarini yaxshilash uchun innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan.

Urbanizatsiyaning har bir turi shahar muhiti va aholisining turmush tarzida muhim o'ringa ega bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotida urbanizatsiyaning bosqichlari ham aniqlangan. Bu ayniqsa, aholi turmush tarzini tarixiy jihatdan tahlil qilganda muhim hisoblanadi. Urbanizatsion jarayonlar har bir mamlakatning iqtisodiy sharoiti bilan bog'liq holda turlicha kechadi. Uning boshlang'ich, rivojlangan va oxirgi bosqichlarini ajratish mumkin. Umumiy tarzda jahon miqyosida tarixiy jihatdan urbanizatsiya jarayonlarining bosqichlari quyidagicha uch bosqichga bo'lingan:

1. Sanoatlashishdan oldingi davr.
2. Sanoatlashgan davr.
3. Postindustrial davr [5].

Qadimgi davrda urbanizatsiya ilk jarayoni shaharlarning tashkil topishi va kengayishi bilan bog'liq holda kechgan. Shaharlarning kengayishi jarayoni vaqt o'tishi bilan sodir bo'lgan. Bunda asosan aholining ko'payishi va hunarmandchilikning taraqqiyoti bilan kechgan. Hunarmandlarning bir joyda to'planishi va savdo markazlarining ham shu yerda joylashganligi ma'lum bir hududga aholini jalb etgan. Bunda tashqi dushman hujumidan himoyalaniish ham muhim ahamiyat kasb etgan. O'rta Osiyoda sun'iy sug'orish tuzilmasining bo'lishi ham dehqonlarni ma'lum joyga to'plagan va bu yerda shahar bilan birgalikda boshqaruv tizimi shakllanib, davlat vujudga kelgan. Davlat boshqaruvi ham shaharda amalga oshirilgan. Davlat boshqaruvi bilan bog'liq markaziy maydon, ibodatxona, ark, bozor qadimgi davr shaharining asosini tashkil etgan. Qadimgi davr sivilizatsiyalari – Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va Oks sivilizatsiyalarida o'ziga xos me'morchilik uslubida qurilgan shaharlar bo'lgan. Bu davr shaharlarining rivojlanishi ham aholi sonining ko'payishi va shaharlarda ko'plab hunarmandlarning to'planishi bilan bog'liq holda kechgan. Dehqonlar ham shaharlarda istiqomat qilib, shahar tashqarisida dalalari bo'lgan. Bu o'rta asrlarga kelganda "rabot" atamasi bilan atalgan. Qadimgi shaharlarning atroflarida dalalarning, bog'larning bo'lganligi arxeologik tadqiqotlar natijasida asoslangan.

Qadimgi davr shaharlari hududning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy markazlari bo'lib xizmat qilgan va qo'shni hududlar bilan o'zaro tovar ayrboshlash va turli g'oyalar almashinuviga imkon yaratgan hududga aylangan. Xalqaro tranzit savdo yo'llarining qurilishi ham shaharlarning yiriklashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi insoniyat tarixida jamiyat hayotining murakkablashuviga, boshqaruv va turli ijtimoiy tashkilotlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Urbanizatsion jarayonlarning sodir bo'lishiga turli xil omillar ta'sir ko'rsatadi. Bunda ijtimoiy hayot, tabiiy muhit, geografik omillar, texnika, texnologiya sohasidagi yangiliklar va hokazolar ta'sir ko'rsatgan.

O'rta Osiyodagi qadimgi davlatlarda urbanizatsion jarayonlarning boshlanishiga turli omillar sabab bo'lgan. Buyuk ipak yo'lining hududdan o'tishi bu jarayonlarni tezlashtirgan. Shaharlarning siyosiy mavqeini oshirib, iqtisodiy va madaniy rivojlanishga sabab bo'lgan.

Ijtimoiy-madaniy urbanizatsiya qadimgi va o'rta asrlardagi shaharlarda mavjud bo'lgan. U shaharlarning ijtimoiy va madaniy markaz sifatida rivojlanishiga zamin yaratgan. Bunday urbanizatsion rivojlanish O'rta Osiyo shaharlaridagi ijtimoiy-madaniy xilma-xillikka va madaniyatlararo o'zaro ta'sirga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Shaharlarning taraqqiyoti bilan urbanizatsion jarayonlar jadallashib boradi. Bu bir tomondan shaharda yashagan aholi uchun qulayliklar tug'dirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan shahar muhitiga salbiy jihatlari ham ko'payib boradi. Bu esa, shahar aholisiga noqulayliklar yaratishi bilan birga ularning sog'liklariga ham salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bugungi kunda urbanizatsiyaning turli xil shakllari vujudga kelgan va shaharlarda aholi sonining ortishi bilan yangidan yangi muammolarni vujudga keltirmoqda. Shaharlarning rivojlanishi bilan u yerdagi atrof-muhit, havo, suv va tuproq ifloslanishi kuchayadi, yashil maydonlar va biologik xilma-xillikni yo'qotish kabi turli xil salbiy omillar paydo bo'ladi. Bu holat ayniqsa, texnika va texnologiyaning rivojlanishi bilan, zavod, fabrikalarning qurilishi, kimyoviy zavodlarning ishga tushirilishi bilan keskinlashib bormoqda.

Xulosa. Bugungi kunda dunyoda urbanizatsiya jarayonlari tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Dunyo aholisining yarmiga yaqini shaharlarda istiqomat qiladi. Bu esa, jamiyat

hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, iqtisodiyot, madaniyat, ijtimoiy hayot va ekologiyada tub ma'noda o'zgarishlar kuzatilmoqda. Urbanizatsiyaning atrof muhitga ta'sirining muvozanatini saqlash shahar aholisi uchun yaxshi turmush tarzini ta'minlaydi va kelajak uchun tabiiy resurslarni saqlab qolish imkonini beradi.

Urbanizatsiya mamlakat aholisi umumiy soniga nisbatan shahar aholisi sonining ortishidir. Shaharda aholi soni qanchalik ko'p bo'lsa, ular iqtisodiyot rivojiga, shahar infratuzilmasiga va jamiyat hayotiga ta'siri oshadi, shu bilan birga ko'plab muammolar ham kelib chiqadi. Bu esa, davlat siyosatida urbanizatsiya jarayonini e'tiborga olishi, aholining yaxshi turmush kechirishi bilan birga turli muammolarning oldini olish bo'yicha samarali tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Wirth L. Urbanism as a Way of Life. The American Journal of Sociology. Vol. 44, No. 1 (Jul., 1938), pp. 1-24.
2. Irving Kristol. Urban civilization and its discontents. «Commentary». - N.Y., 1970.
3. Демографический понятийный словарь / Под ред. проф. Л.Л. Рыбаковского. – М.: ЦСП, 2003. – С. 352.
4. Назарова Ф.У. Агломерациялар ривожланишини таҳлил қилишнинг услубий масалалари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2019, 8(128). –Б. 46.
5. Галич З.Н. Урбанизация и мегаполизация как глобальный процесс (Обзор). <https://cyberleninka.ru/article/n/urbanizatsiya-i-megapolizatsiya-kak-globalnyy-protsess-obzor>
6. Ёрматова Д.Ё. Экология ва атроф муҳитни ҳимоя қилиш. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2018. 109-123. Б.
7. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-u/urbanizatsiya-uz/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).